

Isfandiyor (1946)



Isfandiyor (1946)



Isfandiyor Kimsan o'g'li Matkarimov Marg'ilon shahrida 1946 yilda tavallud topgan. 1969 yili Farg'ona Davlat pedagogika institutini, 1971 yili esa Farg'onadagi musiqa o'quv yurtini, 1978 yili Moskvadagi M. Gorkiy nomli Adabiyot institutining nasr bo'limini, 1981 yili Moskvadagi «Davlatkino» qoshidagi Oliy stsenaristlar kursini, 1997 yili Toshkent yuridik institutini tamomlagan. 1996 yildan advokatlik lavozimida ishlab kelmoqda.

Uning «Saraton», «Meni tongda uyg'oting», «Qasam», «Qasoskor», «Xun», «Qaytish», «O'g'ri», «Inqiroz yoxud generallar o'yini» kabi o'nga yaqin qissa va romanlari chop etilgan. Adib asosan rus tilida ijod qiladi.

U dramaturg—komediograf sifatida esa «Otasining qizi», «Ishonmasang o'laman, xotin», «G'aroyib dori», «Sening taqdiring» kabi sahna asarlarini yaratadi. Isfandiyor stsenarist sifatida «XX asr dinozavrлari», «Qonila yo'g'rilgan muhabbat» va «Loqaydlik mezoni» filmlarini yaratdi.

2023-09-25 20:54:31